

IOLARI PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING IJTIMOYIY JIHATDAN XAVFLI AHVOLDA BO'LGAN OILALAR BILAN ISHLASH FAOLIYATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Abdikarimov Jo'shqinbek Islambek o'g'li

*IIV Akademiyasi 3-o'quv kursi,
313 guruh kursanti.*

Annotatsiya. *Maqolada IIO lari profilaktika inspektorlarining ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oilalar bilan ishlash faoliyatining tushunchasi, o'ziga xosligi, ushbu oiladagi shaxsar tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishini oldini olish faoliyatining mazmuni, ahamiyati, tashkiliy va huquqiy asoslari, mavjud muammo va kamchiliklar, ularni bartaraf etishning usul va shakllari yoritib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oila, nazorat ostidagi shaxs, sud qarori, jamoat tartibi, tajovuz, huquqbuzarlik, jinoyat, huquqbuzarliklar profilaktikasi, ta'sir chorasi, ijtimoiy himoya.*

Hozirgi kunda nafaqat ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlar, balki ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oilalar ham ko'p uchramoqda. Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oila deyilganda quydagilar tushuniladi:

a) ota-ona yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan oiladagi voyaga yetmaganlarni taminlash, tarbiyalash va ularga talim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlayotgan oilalar;

b) ota-ona yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan oiladagi voyaga yetmaganlarni taminlash, tarbiyalash va ularga talim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmayotgan oilalar;

v) ota-ona yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan oiladagi voyaga yetmaganlarning xulq-atvoriga salbiy tasir ko'rsatayotgan yoki ular bilan shafqatsiz muomilada bo'layotgan oilalar hisoblanadi.

O'zbek xalqining mentaliteti, urf-odatlar va qadriyatlaridan ma'lumki, oila azal-azaldan millatimiz ustuni, davlat siyosatining asosi sanalib kelingan. Hattoki, buyuk sarkarda Amir Temur ham farzandlar tarbiyasiga, ularning oila qurishi masalasiga davlat siyosati darajasida o'z e'tiborini qaratgan. Biroq har qanday zamonda va makonda jamiyatga qarshi fikrlaydigan, o'rnatilgan axloq-odob normalariga zid qilmishlar sodir etadigan kimsalar uchraydi. Bunday kimsalar esa o'z-o'zidan ma'lum, bir oilada tarbiya ko'rgan yoki oila boshqaruviga va farzand tarbiyasiga mas'ul bo'lgan. O'zbek xalqida bir maqol bor «Qush uyasida ko'rganini qiladi». Demakki, bu kabi oilalarda o'rtacha uch yoki to'rt nafar farzand unib-o'ssa,

kelajakda uch yoki to'rtta oila farzandlarining tarbiyasi va oilaviy muhiti, aynan ularning qo'lida bo'ladi. Shu bois bu masalaga xalqimiz qadimdan jiddiy e'tibor berib, farzand tarbiyasiga nafaqat ota-ona, balki yetti mahalla ahli mas'ulligiga alohida urg'u berishgan. Ammo ayni paytda so'z jinoyat sodir etishga moyil yoki salbiy xulq-atvorga ega farzand, boshqacha aytganda ijtimoiy xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmagan haqida emas, balki ijtimoiy xavfli ahvolda bo'lgan oila xususida yuritilmoqda. Ayni paytda farzand tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi va ijtimoiy salbiy muhitga ega oilalarga nisbatan turlicha ta'riflar va qarashlar mavjud. Chunonchi, «janjalkash oila», «nizoli oila», «ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oila», kabi tushunchalarning ishlatilishi shular jumlasidandir. Ma'lumki, barcha shaxslar birinchi tarbiyani oilada oladi va jamiyatga mustaqil qadamni oila orqali qo'yadi. Oiladagi muhit sog'lom bo'lsa, u yerda tarbiyalanayotgan voyaga yetmaganlar tarbiyasi to'g'ri tashkil etilgan, xulq-atvori va ta'lim olish jarayoni nazorat ostiga olingan bo'ladi. Bunday oilalarda ota-ona va oilaning boshqa a'zolari tomonidan g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar qilish, voyaga yetmaganlarni turli g'ayriijtimoiy illatlarga jalb etish kabi salbiy harakatlar sodir etilmaydi. Chunki, bu toifadagi oilalar jamiyat uchun xavf-xatar keltiradigan farzandlarni tarbiya qilmaydi.

Qarovsizlik - voyaga yetmaganlarning xavfli ijtimoiy ahvolga tushib qolishi hisoblanadi. Qarovsizlik voyaga yetmaganlar shaxs huquqbuzarliklarning jabrlanuvchi bo'lish yehtimoli bo'lgan subekt bo'lishi bilan birga huquqbuzarlik sodir yetishga ham moyilligi yuqori bo'ladi.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishning asosiy usullaridan biri - yakka tartibdagi profilaktika ishi hisoblanadi. Bunda vakolatli sub'ektlar tomonidan voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida g'ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarliklar sodir yetishga moyil bo'lgan, huquqbuzarliklar sodir yetgan voyaga yetmaganlarni hamda ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlar va oilalarni o'z vaqtida aniqlash, ularni hisoblarini yuritish va ularga tarbiyaviy tasir ko'rsatishga doir faoliyat amalga oshiriladi.

Profilaktika inspektorlari spirtli ichimlik iste'mol qilayotgan voyaga yetmaganlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib quydagi ishlarni amalga oshiradi:

- spirtli ichimlik bola ko'liga qanday yetib borayotganligini tafsilotlarini aniqlaydi;

- voyaga yetmaganlarni spirtli ichimlik istemol qilishga undayotgan shaxslarni aniqlash borasida tegishli xizmat sohalari bilan birgalikda tadbirlar o'tkazadi;

- bolani profilaktik ro'yxat hisobiga oladi.

Yanna bir misol, bola nazoratsiz va qarovsiz qolganda proqilaktika inspektorlari tomonidan quydagilar amalga oshiriladi:

-bolaga nisbatan ikkita qo'shni ishtirokida alohida dalolatnoma tuziladi, u fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish raisi tomonidan imzolanadi;

bolani nima sababdan qarovsiz va nazoratsiz qolganligining sabab va sharoitlarini aniqlash choralari ko'riladi;

ota-onasining qarovsiz qolgan bola xaqida u aniqlangan kundan boshlab yetti kun mobaynida tegishli vasiylik va xomiylik organiga malumotlar beriladi.

Profilaktika inspektorlari tomonidan vaqtida voyaga yetmaganlarni xulqi, o'zini salbiy tutishi va boshqa ko'rinishlari yaxshi o'rganilmasa, bu voyaga yetmaganning kelgusida huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlarning o'ziga xos xususiyatlari ularning o'zini qanday tutishi, xarakteri, ota-onasining yo'qligi, huquqbuzarliklar sodir yetishga moyil bo'lishi va boshqa misollar keltirish mumkin. Voyaga yetmaganlarni huquqbuzarliklar sodir yetishga moyil bo'lib qolishiga asosiy sabablardan biri bu oiladagi nosog'lom muhit hisoblanadi. Masalan, ota-ona o'rtasidagi o'zaro janjallar, otaning ichkilikka berilgani, ota-onaning bolaga yetarlicha vaqt ajratmasligi va shu kabi boshqa sabablarni ko'rsatish mumkin.

Yakka tartibdagi profilaktika ishi quyidagi voyaga yetmaganlarga nisbatan olib boriladi:

- nazoratsiz yoki qarovsiz qolganlar;
- g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etganlar;
- ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalarida yoki ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlarida saqlanayotganlar;
- ta'lim muassasalaridagi mashg'ulotlarga uzrli sabablarsiz kelmayotgan yoki muntazam ravishda qatnashmayotganlar;
- ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etganlar;
- amnistiya akti asosida yoki qilmish yoxud shaxs ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotganligi sababli yoki aybdor o'z qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi yoxud yarashilganligi munosabati bilan, shuningdek voyaga yetmaganni jazo qo'llamasdan turib tuzatish mumkin deb e'tirof etilgan hollarda jinoiy javobgarlikdan ozod qilinganlar;
- ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan, lekin jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan yoshga to'lmaganlar yoxud ruhiy kasallik bilan bog'liq bo'lmagan holda rivojlanishda o'z yoshiga nisbatan ancha orqada qolishi oqibatida sodir etgan qilmishining ahamiyatini to'la ravishda anglab yetishga qodir bo'lmaganlar;

- jinoyat sodir etganlikda ayblanib, qamoqqa olish bilan bog'liq bo'lmagan ehtiyot chorasi qo'llanganlar;
- majburlov choralari qo'llangan holda jinoiy jazodan ozod qilinganlar;
- jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinganlar, shaxs ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotganligi sababli yoki aybdor o'z qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi munosabati bilan yoxud amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan ozod qilinganlar;
- hukmning ijrosi kechiktirilganlar;
- shartli hukm qilinganlar, axloq tuzatish ishlariga yoki ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa jazo turlariga hukm qilinganlar;
- jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilganlar yoki ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelganlar;
- ruhiy kasallik tufayli sog'liqni saqlash muassasalarida hisobda turganlar va huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lganlar.

Voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi o'z faoliyatini voyaga yetmaganlar qarovsizligi va nazoratsizligi, ular o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchiliklarning oldini olish, ota-onalik burchlarini bajarmasdan, farzand tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni aniqlash, ularga nisbatan qonuniy choralari ko'rish borasida ichki ishlar idoralarining boshqa xizmatlari, davlat idoralari, nodavlat hamda jamoat tashkilotlarining ko'magiga tayangan holda ishlarni tashkil qiladi va olib boradi. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar, jinoyatlar to'g'risida tegishli davlat idoralari, jamoat tashkilotlari, voyaga yetmaganlarning o'qish va ish joylariga va ularning ota-onalari yoki o'rnini bosuvchi shaxslarning ish joylariga xabarnomalar yuborib, salbiy holatlarni keltirib chiqaruvchi shart-sharoitlarni bartaraf qilish borasida takliflar kiritadi. Ichki ishlar organlarining tergov hamda tezkor xizmatlari bilan hamkorlikda voyaga yetmagan shaxsni huquqbuzarlik va g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilayotgan shaxslarni, guruhlarini aniqlaydi, ularga nisbatan qonuniy choralari ko'radi.

Albatta, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar mamuriy yuridiksiyada yengillashtiruvchi holatlar sifatida inobatga olinadi. Shunday ekan, huquqni qo'llash amaliyoti va qonunchilikni takomillashtirish choralari ishlab chiqish hamda amalga oshirish orqali huquqbuzarliklarning, ayniqsa, voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida oldini olish hamda ularga chek qo'yish, shuningdek, ularning sodir etilish sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash, tahlil qilish va bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish bugungi kunda amalga oshirilishi kerak bo'lgan yeng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, huquqni qo'llash amaliyotini amalga oshirish bilan birgalikda

voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktiksi inspektorlari etibor berishi lozim bo'lgan muhim nuqtalardan biri bu mamuriy hududda ilgari sudlangan shaxslarning jinoiy faolligi yuqori bo'lib, nafaqat o'zlari jinoiy faoliyatlarini davom ettirishi bilan, balki hayotiy tajribasi kam, ishonuvchan yoshlarni, ayniqsa, voyaga yetmaganlarni jamiyatga zid turmush tarziga, axloqsizlikka o'rgatishi, ularni huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etishga jalb etishlari bilan xavflidir. Darhaqiqat, profilaktika inspektorlari bilan hamkorlikda ushbu vazifalarni, ya'ni viktimologik profilaktikani amalga oshirishlari lozim. Bunday harakatlar va noxush vaziyatlar kelib chiqmasligi uchun hududiy profilaktika inspektorlari bilan hamkorlik asosida ijtimoiy muammolarni hal etish, birinchi navbatda, aholi bandligini ta'minlash, ayollar va yoshlarni ijtimoiy-foydali faoliyatga jalb etishni faollashtirish, voyaga yetmaganlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ishlash tizimini ularni Vatanga muxabbat, vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadiriylarga hurmat ruxida tarbiyalashga, o'sib kelayotgan yosh avlodni terrorizm, diniy ekstremizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalariidan himoyalashga yo'naltirilgan holda rivojlantirish orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 801-son qarori profilaktika inspektorining mahalla bilan jamiyat darajasida samarali hamkorlik qilishini huquqiy jihatdan mustahkamlaydi. Bu hamkorlik elektron ma'lumot almashish, jamoat resurslarini birlashtirish, hamda ijtimoiy yordam dasturlari orqali amalga oshiriladi. Natijada, mahalla darajasida huquqbuzarlikka moyil shaxslarga samarali profilaktika choralari ko'riladi, jamoat xavfsizligi va ijtimoiy barqarorlik yanada yaxshilanadi. Mahalla - jamoatning eng kichik, "mahalliy" darajasi, hammaga yaqin. Profilaktika inspektori mahalla bilan ishlash orqali huquqbuzarlikka moyil, yoki ijtimoiy xavfli shaxslarni joydan aniqlay olish imkoniga ega bo'ladi. Mahalla yettiligi (mahalla rahbarlarining jamoat tuzilmasi) profilaktika inspektorining hamkorlikdagi muhim sub'ekti hisoblanadi. Qarorda "mahalla yettiligi" ishtirok etuvchi sifatida ko'rif berilgan. Profilaktika inspektori - hududda jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarni oldini olish, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash va jamoat tartibini saqlash uchun mahalla darajasida ish olib boruvchi ichki ishlar organi xodimi hisoblanadi. U o'z vazifalarini bajarishda mahalla faollari bilan yaqin hamkorlikda ishlaydi. Mahalla yettiligi esa hududdagi tartib, xavfsizlik, ijtimoiy masalalarni hal etishga yo'naltirilgan 7 nafardan iborat jamoatchilik tuzilmasidir. Profilaktika inspektori va mahalla yettiligi o'rtasidagi hamkorlik mazmuniquyidagilarda nomoyon bo'ladi:

1. Huquqbuzarliklarni oldini olishda-hududda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yuvenal, maishiy, maishiy zo'ravonlik, ichkilikbozlik va boshqa salbiy holatlarni aniqlash, profilaktik suhbatlar o'tkazish, norozilik, nizolarni bartaraf etishda mahalla faollari bilan birgalikda ish yuritish;

2. "Xavfsiz mahalla" tizimini yo'lga qo'yish-videokuzatuv qurilmalarini o'rnatish va nazorat qilishda aholi bilan hamkorlik, hovlilar, ko'chalar va ko'p qavatli uylarda xavfsizlik talablariga rioya etilishini nazorat qilish;

3. Yoshlar bilan ishlash-og'ir ahvoldagi, tarbiyasida muammo bo'lgan yoshlarni ro'yxatga olib, ular bilan manzilli ish olib borish, yoshlar yetakchisi bilan birgalikda sport, madaniy va ma'rifiy tadbirlar tashkil etish, jinoyat yoki huquqbuzarlikka moyil bo'lgan yoshlarni nazorat qilish va ijtimoiy himoya choralari ko'rish;

4. Xotin-qizlar bilan ishlashda-xotin-qizlar faoli bilan birga oilalardagi muammolarni aniqlash, maishiy zo'ravonlik holatlarining oldini olish, ayollarni qo'llab-quvvatlash dasturlariga yo'naltirish;

5. Ijtimoiy daftarlar bilan ishlashda "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari", "Mehr daftari" dagi fuqarolar holatini o'rganish, kam ta'minlangan oilalarga yordam ko'rsatish mexanizmlarini ishga tushirish, ish bilan ta'minlash, kasbga o'qitish masalalarida davlat tashkilotlar bilan bog'lash;

6. Jamoat tartibini ta'minlashda-bayramlar, ommaviy tadbirlar, marosimlarda xavfsizlik choralari ta'minlash, tungi tartib, tinchlik va osoyishtalikni saqlash, qonunbuzarlik sodir etgan shaxslar bo'yicha chora ko'rish va jamoatchilikka axborot berish. Umumiy olganda profilaktika inspektori va mahalla yettiligi o'rtasidagi hamkorlik –mahalladagi tinchlik, xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan muhim mexanizmdir. Ular birgalikda aholi bilan doimiy muloqot qilib, huquqbuzarliklarning oldini oladi, muammolarni barvaqt aniqlab, tegishli choralarni ko'radi.

Xulosa qilib aytganda ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oilalar bilan ishlash faoliyatining samaradorligi asosan mahalla faollari, mahalla yettiligi va profilaktika inspektorining o'zaro hamkorlikdagi faoliyatining to'g'ri yo'lga qo'yilganligi, ishni izchil va rejali tashkil etganligiga bog'liq.

Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oilalar huquqbuzarliklarni oldini olish, muammolarini joyida hal etish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda yuqoridagi mexanizm asosiy richag hisoblanadi. Ushbu tizim vakolatlar, elektron ma'lumot almashish va ijtimoiy dasturlar orqali samarali faoliyat yuritishni ta'minlaydi. Mahalla va profilaktika inspektori hamkorligi oila tinchligi xavfsizligi va farovonligini oshirishda davlat siyosatining asosiy yo'nalishi sifatida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/8440>.
2. O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 14 noyabrdagi "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-996-son qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.11.2024 yildagi 801-son qarori "Obod va xavfsiz mahalla tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida". Lex.uz.
4. Таштемиров А. А., Комилов А. М. Ў. Одам савдоси жиноятига қарши курашишни такомиллаштиришга оид айрим мулоҳазалар //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 7. – С. 135-138.
5. Таштемиров А. А. и др. Вояга етмаганлар ўртасида ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўйича ички ишлар органларининг ҳамкорлиги //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – Т. 2. – №. 25. – С. 32-40.
6. Таштемиров А. А. и др. Нуқуқбузарлик содир этилишининг сабаблари ва шароитларини аниқлаш ва бартараф этиш фаолиятини такомиллаштириш йўналишлари //So 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2023. – Т. 6. – №. 12. – С. 454-461.
7. Tashtemirov A., Baxtiyorov S. Profilaktika inspektorining jinoyat ishlar bo 'yicha sudlar bilan hamkorligining o 'ziga xos xususiyatlari //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. Maxsus son 12. – С. 38-42.
8. Tashtemirov A., Usmonova Y. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan shaxslar bo'yicha ishlash faoliyatini huquqiy ta'minlash //Наука и технология в современном мире. – 2024. – Т. 3. – №. 12. – С. 59-61.
9. Tashtemirov A., Raxmonqulov S. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan shaxslar bilan ishlash faoliyatining tushunchasi //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. Maxsus son 12. – С. 62-67.
10. Tashtemirov A., Sadullaev M. Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda iiolari profilaktika inspektorlarining bojxona xizmati bilan hamkorligining tashkiliy-huquqiy asoslarI //Общественные науки в современном



мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. Maxsus son 12. – С. 50-53.

11. Tashtemirov A., Usmonova Y. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan yoshlar bilan ishlash faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 12. – С. 51-52.